

**TALABALARNI KASBIY – PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONIDA
MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHGA
TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Shanasirova Zahro Yuldashovna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim kafedrası o’qituvchisi klaster bo’yicha

***Rezyume:** Maqolada bugungi kunda dolzarb mavzu bo’lgan talabalarni kasbiy – pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.*

***Tayanch so’zlar:** ta’lim jarayoni, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, malakali pedagogik kadrlar, uzluksiz ta’lim tizimini.*

Insoniyat tarixida u yoki bu jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishida inson kamoloti muhim o‘rin egallagan. Inson kamolotida esa ta’lim-tarbiya muassasalari va undagi yetakchi shaxs – o‘qituvchi-ustozning o‘rni doimo muhim bo‘lgan.

Mustaqillikka erishilgach, mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta’lim-tarbiya borasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ham moddiy texnika ta’minoti ham ilmiy-ma’rifiy jihatdan jiddiy o‘zgarishlarga erishildi. Umumta’lim, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun yangi dasturlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratildi, axborot-texnika vositalari bilan ta’minlandiki, bular ta’lim sohasini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash va yoshlarni pedagogik faoliyatga jalb etish uchun uning maqomini oshirish lozim.

Shuningdek, dasturda ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari ham belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- uzluksiz ta'lim tizimini pedagogik kadrlar bilan to'liq ta'minlash. Bunday tayyorlov nafaqat davlat grantlari bo'yicha, balki mintaqaviy, hududiy va tarmoq boshqaruv organlari grantlari asosida olib borilishi lozim...

- pedagog kadrlarni tayyorlashni ijtimoiy, umummilliy, psixologik-pedagogik va mazmunini takomillashtirish;

- muhandis-pedagog kadrlarni yangi texnologiyalar bo'yicha tayyorlashga alohida e'tibor qaratish;

- pedagog kadrlar tayyorlash tizimida axborot madaniyati darajasi ko'tarilishini ta'minlovchi moddiy-texnik baza va ilmiy-uslubiy nazoratni rivojlantirish;

- pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishni yo'lga qo'yish, ularni tezkor tayyorlov va qayta tayyorlov shakllarini kengaytishi (jumladan, ta'limning masofaviy shakli va ochiq ta'limni har tomonlama rivojlantirish);

- o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interaktiv ta'lim metodlari va usullari, tanqidiy fikrlash asoslarining pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi va o'quv jarayoniga joriy etilishini yo'lga qo'yish;

- ustuvor yo'nalishlar bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash.

Uzluksiz ta'limga oid qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlarda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish va undan o'rinli hamda unumli foydalanish muhimligi ta'kidlanadi.

Respublikamiz ta'lim-tarbiya, ma'naviy rivojlanish, ilmiy salohiyat sohasida juda ko'p asrlar davomida to'plangan boy va tarixiy, milliy-ma'naviy, ilmiy-etnik tajribaga ega.

Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar ham o'n asrdan ortiq vaqt davomida o'zining ilmiy, madaniy, ma'naviy salohiyati bilan o'zga xalqlar madaniyatiga samarali ta'sir ko'rsatib kelgan. O'zbekiston mustaqillik yillarida Rossiya, Germaniya, Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasida erishgan tajribalarini ijobiy tarzda o'rganib, mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etib kelmoqda.

Yaratilgan tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularning deyarli barchasida asosan o'qituvchining odobi, axloq, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni haqida fikr yuritiladi, ammo pedagogni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash masalasi chetlab o'tiladi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga qo'yiladigan talablar va ularning muhimligi, talabalarni ma'naviy tarbiyada pedagogik-psixologik tayyorlash yo'l yo'lakay qayd etiladi. Vaholangki, bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida «Ma'naviyat asoslari» kursi o'rganiladi. Lekin, bu kurs mazmunida ham bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash yaxlit tizim tarzida o'rin olmagan.

Talabalarni kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashda avvalo ular «ma'naviyat», «ma'rifat», «ma'naviy tarbiya» tushunchalarining mazmun-mohiyatidan boxabar bo'lishlari zarur. Shundagina ular ta'lim muassasalariga ishga borib mustaqil pedagogik faoliyat boshlaganlarida ulardan ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodni yuksak ma'naviyatli inson bo'lib kamol topishida o'zlarining pedagoglik burchlarini samarali bajargan bo'ladilar. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda yosh pedagoglar albatta, tajribali o'qituvchilar bilan yaqindan aloqada bo'lishlari, ulardagi ilg'or tajribalarni sidqidildan o'rganishlari lozim. Ta'kidlash joizki, «Ma'naviyat» so'zining negizida arabcha «ma'ni» so'zi yotadi. «Ma'naviy» so'zi ma'noga aloqadorlikni bildirsa, «ma'naviyat» «ma'naviy» so'zining ko'pligidir.

«Ma'naviyat» atamasining negizida «ma'no» so'zi yotar ekan, uning mazmuni, ko'lami va tarkibini aniqlab olish «ma'naviyat» atamasini to'laroq anglab olishga yordam beradi. «Ma'no» mohiyatning ifodalanish shaklidir. Ayni paytda, ma'no, bir tomondan mohiyatning shakli bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning o'zi so'z va jumla uchun mazmundir.

«Ma'rifat» - (arabcha - bilmoq) ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyatdir.¹

¹ Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп уғат. (Муаллифлар: М.Абдуллаев ва бошқ. А.Жалолов ва

Shunday ekan, bo'lajak pedagogning o'zi oliy o'quv yurtida bilim olish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar ma'no-mazmunini bilib olgan, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lsagina o'z faoliyatida ko'zlagan maqsadiga erishadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlari talabalarini ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash masalasi ular oldiga qator talablarni qo'yadi. Bu talablar: pedagogning shaxsiy sifatlari, bilimli bo'lishi, ko'nikma va malakasi, tashkilotchiligi, muomala, san'atga munosabati, pedagogik mahorat, pedagogik-psixologik tayyorligi, pedagogning tarbiyaviy mashg'ulotga tayyorligi, ijodkorligi, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga, malaka oshirishga tayyorgarligi va boshqalardan iborat.

O'qituvchi odobi milliy va umuminsoniy axloqning qonuniyatlari, maqsad va vazifalari, tamoyillari, talablari, tushunchalari hamda mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida aniqlashtirib, o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar, maktab rahbarlari va ota-onalar, keng jamoatchilik bilan bo'ladigan munosabatlarda namoyon bo'ladigan axloqiy xususiyatlardir.

Bo'lajak o'qituvchida quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlarning tarkibi topganda, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi obro'-e'tibori ortib boradi.

Shaxsiy sifatlarga: bolajonlik, farosatlilik, talabchanlik, vijdoniylik, o'z kasbiga fidoyilik, tashabbuskorlik, mafkuraviy onglilik, qat'iyatlilik, adolatlilik, samimiylik, millatlararo bag'rikenglik, bag'arazlik, ertangi kunga ishonchlilik, vatanparvarlik, poklik, ozodalik, rahmdillik va boshqa fazilatlarni kiritish mumkin. Bu fazilatlarni o'zida shakllantirgan pedagog bolalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda qiyin vaziyatlarga tushib qolmaydi. O'z shaxsiyati bilan o'quvchilarga ibrat namunasi bo'ladi. Talabalarni kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashda ularni quyidagi bilimlardan xabardor qilish zarur. Chunonchi:

- O'zbekistonning taraqqiyotini belgilovchi besh tamoyilning ma'no-mohiyatini anglab olishi;
- o'zi egallagan fanning tarbiyaviy imkoniyatlarini bilishi;

- ma'naviy-ma'rifiy tarbiya turlari va ularning inson shaxsini kamolga yetishidagi imkoniyatlarini bilishi;

- O'zbekiston hukumatining ichki va tashqi siyosatidan atroflicha xabardor bo'lishi;

- o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlaridan puxta bilimga ega bo'lishi;

- o'z xalqining tarixiy an'analaridan yaxshi xabardor bo'lishi;

- o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;

- milliy tarbiyamiz an'analarini zamon bilan hamohang tarzda yoshlar ongiga singdira olishi;

- qiyosiy pedagogik va etnopsixologik bilimlarni bilishi;

- dunyoqarashini ijtimoiy-falsafiy, ruhshunoslik, siyosiy, iqtisodiy, tarixiy bilimlar bilan boyitishi;

- san'at, xuquq va texnikaga oid bilimlardan xabardor bo'lishi va h.k.

Talabalarni kasbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashda ularda quyidagi fazilatlarni shakllantirish ham zamon talabi sanaladi:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik tamoyillariga va ona-Vatanga sadoqat ruhida, aqliy, ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy, estetik, ekologik, gigienik tarbiyalashning mazmuni, metodlarini bilishi va amaliyotga tadbiiq eta olishi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil eta olishi;

- pedagogik munosabatlar va ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish yo'llarini bilishi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish shakllarini bilishi;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni, bayramlarni rejalashtirib, tashkil etish va yuqori saviyada o'tkaza olishi;

- pedagogning o'zi ham rasm solish, birorta cholg'u asbobini chalishni bilishi, raqsga tushish, qo'shiq kuylash kabi fazilatlarni ham egallagan bo'lishi zarur.

Talabalar oliy o'quv yurtini bitirib, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borar ekan, pedagogik mahoratni egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik maxoratlari oshib borgani sari ular maktab va maktabdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ko'zlangan samaraga erishadi. O'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosida o'quvchilarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tarbiyada tizimli bo'lishi kerak. Hozirgi jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan ommaviy axborot vositalari, ilmiy, badiiy adabiyotlar, ta'lim muassasalari va jamiyatchilik orasida o'tkaziladigan suhbatlar, uchrashuvlar, munozaralar ham ma'rifiy ishlar tizimiga kiradi. Jamiyat rivojlanib borgani sari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar miqyosi ham kengayib boradi. Bularning barchasi pedagogik mahoratni talab qiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qila bilish, milliy va zamonaviy g'oyalar bilan qurollangan, yoshlarni milliy odatlarga ruhlantira olish, o'zida tom ma'nodagi ziyolilik fazilatlarini takomillashtirgan, ona tilida sof, go'zal va ifodali so'zlash, notiqlik va akterlik fazilatlarini, yoqimli xatti-harakatlar, imo-ishoralar orqali nutqining ta'sirchanligini oshira olish, sabr-toqatli bo'lish, bolalar bilan turli psixologik vaziyatlarda yo'l topa olish kabi hislatlarga ega bo'lishi zarur.

Shunday qilib, jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida talabalar – bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashda yuqorida ta'kidlangan pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari, bilim va ko'nikmalar, malakalar tizimini shakllantirish muhim sanaladi. Bunda pedagogik ta'limning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqib:

- bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda, avvalo ularning o'zlari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, milliy mafkurani shakllantirish, barkamol insonni tarbiyalashdagi o'rnini atroflicha anglab yetmog'i;

- talabalar – bo'lajak o'qituvchilar o'zlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning tarkibiy qismlari: pedagog odobi, pedagogning ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini, pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirmog'i;

- talabalar – bo‘lajak o‘qituvchilar oliy o‘quv muassasasida kasbiy pedagogik ta’lim jarayonida ijtimoiy, siyosiy, pedagogik, tarixiy, falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy bilimlar asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari;

- talabalar – bo‘lajak o‘qituvchilar umumta’lim maktablarida faoliyat olib borish jarayonida o‘quvchilar bilangina emas, boshqa davlat, jamoat tashkilotlari, ota-onalar bilan ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Avanesova, V.N. Teoreticheskiye osnovi zanyatiy kak forma umstvennogo vospitaniya i obucheniya: Soderjaniye i metodi umstvennogo vospitaniya doshkolnikov / V.N. Avanesova – M.: Prosvesheniye, 1980. – 200s.
2. Pijyanova, L. Kak pomoch rebenku v period adaptatsii / L. Pijyanova // Rebenok v detskom sadu. – №2. – 2003. – S. 21 – 28.
3. Loginova, V.I. Doshkolnaya pedagogika / V.I. Loginova, N.G. Samorukova – M.: Prosvesheniye, 2000. – 250s.
4. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
5. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. 3 сон, 3 жилд. Б.102-105.
6. Юсупов О.Н. О'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари. 3 жилд, 19 сон, - ТДПУ, 2019. Б.146-150.
7. Юсупов О.Н. Анализ проблемы стиля в художественном переводе. The Way of Science, 94. 2014.
8. Юсупов О.Н. Бадиий матннинг лингвокогнитив хусусиятлари. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари, 1 (10), 35 - 37. 2017.

9. Юсупов О.Н. Специфика художественного перевода. Наука и Мир 2 (3), 170 - 172. 2014.
10. О.Н. Юсупов. [Pride of Uzbek nation](#). The Way of Science 9 (31), 80-81
11. ОН Юсупов. [Чет тили дарсларида таржима муқобиллигини яратиш асосида тилни ривожлантириш](#). Тил ва адабиёт таълими 2 (2), 96-99
12. О.Н. Юсупов. Стилистика. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 320 стр.
13. О.Н. Юсупов. Лексикология. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 344 стр.
14. O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. [Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People](#). LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731
15. Yusupov O.N. [Subtleties Of Literary Translation](#). İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-1991